

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIKNI OSHIRISHNI TA’MINLASH YO‘LLARI

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi iqtisod fanlari doktori professori

Yusupov Abzal Nabijon o‘g‘li

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kambag‘allikni qisqartirish va aholining bandligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, davlat siyosati va ijtimoiy dasturlar tahlil qilinadi. Ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ta’lim va kasb-hunar o‘qitishni takomillashtirish kabi asosiy yo‘nalishlar qamrab olinadi. Shu bilan birga, aholining mehnat bozoridagi ishtiroki va samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, bandlik, ish o‘rinlari, tadbirkorlik, ta’lim, kasb-hunar, mehnat bozori.

Annotation: This article analyzes the strategies and state policies implemented to reduce poverty and increase employment. It covers key areas such as job creation, the development of entrepreneurship, and the improvement of education and vocational training. Recommendations are also provided to enhance the participation and efficiency of the population in the labor market.

Keywords: poverty, employment, job creation, entrepreneurship, education, vocational training, labor market.

Davlatimiz siyosatida inson manfaatlari, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor. Shu boisdan ham keyingi yillarda aholining muayyan qatlami o‘rtasida kambag‘allik borligi tan olinib, uni qisqartirish bo‘yicha alohida tizim joriy qilindi. Respublikada kambag‘allikka qarshi kurashish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, bu ishlarga tadbirkorlik sub’ektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb qilish va ularga qo‘shimcha qulayliklar yaratish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston kambag‘allikni qisqartirish borasida boshlagan ishlarni yangi bosqichga olib chiqib, “inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida islohotlarni qat’iy davom ettirishni o‘z oldiga maqsad qilgan. Mamlakatimizda iqtisodiyotni barqarorlashtirish sharoitida mehnat bozorini takomillashtirish, ishchi

kuchiga amalda haqiqiy talab va taklif asosida bandlikni ta'minlashning ijtimoiy munosabatlari ham bu boradagi amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviy davomchisidir. Zero, aholi bandligini ta'minlash aholi turmush darajasini oshirishning muhim omilidir. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligi bilan o'lchanadi. Mamlakatimizda o'ziga xos bo'lgan qishloqlarda aholini ish bilan ta'minlash, mehnat bozorining rivojlanishi, ishsizlik kabi muammolar respublikamiz olimlari tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur muammolar mamlakatimiz olimlaridan R.A.Ubaydullaeva, D.X.Suyunov, Q.X.Abdurahmonov, M.M.Muhammedov, L.P.Maksakova, B.X.Umurzakov, M.Q.Pardaev, Sh.R.Xolmo'minov, Z.Ya.Xudoyberdiev, D.Ortiqova, D.N.Rahimova, N.X.Rahimova, N.Z.Zokirova, K.Z.Xomitov, N.U.Arabov kabilar tomonidan tadqiq qilingan.

Ijtimoiy jixatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti to'la-to'kis ham bozor iqtisodiyoti, ham ijtimoiy iqtisodiyot hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotini ijtimoiy yo'naltirish zaruriyati, albatta, inson manfaatidan kelib chiqadi. Bozorning shunday oqibatlar borki, bunda ma'lum toifa himoyaga muhtoj bo'lib qoladi. Shuning uchun ham sivilizatsiya ijtimoiy himoya tizimini talab qiladi.

Ijtimoiy himoyalashdagi muhim masala aholini bozor bahosining tez o'sishi, inflyatsiya ta'siridan himoya etish va buning oldini olish bilan bog'liqdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mollar narxining ko'tarilishi to'xtatib bo'lmaydigan holatdir. Bunda oylik ish haqi va belgilangan daromadga ega bo'lganlarni o'sib borayotgan tovarlar va xizmatlar narxining salbiy ta'siridan muhofaza etish yirik ijtimoiy muammodir. Ayniqsa, nafaqaxo'rlar, talabalar ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'ladi.

Bunda vaqti-vaqti bilan maosh, stipendiya, nafaqalar miqdorini bir oz oshirish masalani hal qilmaydi. Shuning uchun indeksatsiya usulini qo'llash yuz beradigan og'irlikni biroz yumshatib, turmush darajasiga bo'lgan og'ir ta'sirni yengillashtiradi. Chunki qabul qilinadigan indekslar tufayli daromad narx-navo darajasiga qarab o'zgarib turadi hamda ko'tarilayotgan baholar keltiradigan zararlarning asosiy qismini qoplab boradi.

Bundan tashqari, bozor narxlaridan himoya qilishda ta'minotning alohida usullarini qo'llash ahvolni yumshatishga yordam beradi. Masalan, aholining

ayrim tabaqalari uchun maxsus ta'minot tayinlash yoki vaqti- vaqti bilan oziq-ovqat va sanoat mollari tarqatish kabi usullardan rivojlangan mamlakatlarda foydalaniladi.

Ijtimoiy himoya yuqorida qayd qilingan usullar bilan chegaralanmaydi, sharoitga qarab aniq shakllarni topib, ularni qo'llab boradi. Ayniqsa, kam daromadlilarni bozorning salbiy ta'siridan asrash va turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik davlatning muhim vazifasidir. O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan isloh qilishga beshta muhim tamoyilni asos qilib olingandi. Ulardan biri demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining turmush darajasini hisobga olgan holda ularni ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora- tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Davlat ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosi foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
 - davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish;
 - ko'rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
 - ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
 - ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqalar;
 - kam ta'minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko'rsatish;
 - bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
 - talabalar uchun to'lanadigan davlat stipendiyalari;
 - ishsizlik nafaqasi;
 - eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarining belgilangan narxlarda sotilishini ta'minlash;
 - ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash;
 - ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog'liqni saqlash, ta'lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash. Endilikda kuchli ijtimoiy siyosat aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ishonchli, aniq manzilli, ya'ni shunga muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratiladi
- Xulosa:** Kambag'allikni qisqartirish va bandlikni oshirish mamlakatning barqaror

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Buning uchun davlat tomonidan keng qamrovli islohotlar va dasturlar amalga oshirilishi, xususiy sektor faoliyati qo'llab-quvvatlanishi va aholining kasbiy malakasini oshirish talab etiladi.

REFERENCES

1. D.D. Suvanova. Digitalize enterprise business processes methodological approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023 ISSN (E): 2938-3811.
2. D.D. Suvanova The digitalization of business processes itself scientific approaches to the characteristics. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. Volume: 19 December 2023.
3. D.D. Suvanova. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Elektron nashr.. 2024-yil avgust. № 8-son. 277- sahifa.
4. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg'or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.
5. Suyunova D.D. Rakamli iqtisodiyot tizimi iqtisodiyotni rivojlanishining elektron mexanizmi. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375>. 2025, fevral.
6. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79-83.
7. Suyunov D. X. Scientific and theoretical approach to the implementation of digital transformation of corporate governance in joint-stock companies// Actual problems of business development and entrepreneurship in the digital economy, international scientific and practical conference. 2022.12.23
8. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79.

9. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79-83.

10. Suyunov D. X. Scientific and theoretical approach to the implementation of digital transformation of corporate governance in joint-stock companies// Actual problems of business development and entrepreneurship in the digital economy, international scientific and practical conference. 2022.12.23

11. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79.

12. D.D. Suvanova. Digitalize enterprise business processes methodological approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023 ISSN (E): 2938-3811.

13. D.D. Suvanova The digitalization of business processes itself scientific approaches to the characteristics. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. Volume: 19 December 2023.